



UDK:091

Muxtasar OLIMOVA,
Guliston davlat universiteti dotsenti v.b., f.f.d
E-mail:olimova.muxtasar0927@gmail.com

GulDU dotsenti, f.f.d N.Temirova taqrizi asosida

THE IDEOLOGICAL FACTORS AND SOCIO-PHOLOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF THE PROTECTION OF HUMAN INTEREST

Annotation

The article examines the content of socialization, the role of ideological factors in a person's life, freedoms, and interests. Additionally, it explores approaches to studying the process of socialization, as well as the role of ideological aspects, education, culture, social norms, and socio-moral values in the socialization of the individual.

Key words: Socialization, human, society, freedom, unity of interests, socio-cultural factors, ideological factors, socio-philosophical analyses, socio-ethical values.

ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЗАЩИТЫ ИНТЕРЕСОВ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

В статье рассматривается содержание социализации, роль идеологических факторов в жизни, свободах и интересах человека.

Дополнительно исследуются подходы к изучению процесса социализации, а также роль идеологических аспектов, образования, культуры, социальных норм и социально-моральных ценностей в социализации личности.

Ключевые слова: Социализация, человек, общество, свобода, единство интересов, социокультурные факторы, идеологические факторы, социально-философский анализ, социально-этические ценности.

INSON MANFAATLARI HIMOYASINING MAFKURAVIY OMILLARI VA IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiylashuvning mazmuni, inson uning hayoti, erkinliklari va manfaatlari mafkuraviy omillarining roli o'rganilgan. Shuningdek ijtimoiylashuv jarayonini tadqiq etishdagi yondoshuvlar, shaxsning ijtimoiylashuvida mafkuraviy jihatni, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy me'yorlar ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarining o'rni ham o'rganilgan.

Kalit so'zlari: Ijtimoiylashuv, inson, jamiyat, erkinlik, manfaatlar birligi, ijtimoiy madaniy omillar, mafkuraviy omillar, ijtimoiy-falsafiy taxlillar, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar.

Kirish. Inson uning hayoti, erkinliklari va manfaatlari barcha davrlarda ulug' mutafakkirlar ijodining asosiy mavzusi bo'lgan, lekin ijtimoiy boshqaruv darajasida ularga yetarli e'tibor qaratilmagan. Insonning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasi uning huquq, erkinliklari va manfaatlari himoyasi turli siyosiy, mafkuraviy maqsadlar himoyasi bilan uyg'un bo'lgan. Inson manfaatlari himoyasi uning ehtiyojlarini ta'minlash bilan bog'liq ravishda takomillashib borgan. Masalan, ibtidoiy jamoa davrida odamlar manfaatini teng himoya qilish taqozo qilingan, biroq davr o'tishi bilan iqtisodiy ehtiyojlarning qondirilishidagi tengsizlik manfaatlardagi tengsizlikning shakllanishiga sabab bo'lgan va bu jarayon barcha davrlarda amal qilgan, manfaat va ehtiyojlar dinamikasida yuksalish birlamchi ahamiyat kasb etgan.

Manfaat va ehtiyoj uyg'unligi insonning shaxs sifatidagi ichki mazmunini va hayotiy qiziqishlarini shakllantirgan. Shaxs manfaatlari genetik (nasliy), biologik-tabiyy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi bilan belgilangan. Inson manfaatlarining himoyasi uning shaxs sifatida ehtiyojlarining qondirilishiga zamin yaratgan, biroq aynan bu jarayondagi buzilish shaxslararo muammolarning shakllanishiga ta'sir etgan.

O'zbekistonda mustaqil taraqqiyotning dastlabki kunlaridan hozirgi davrgacha inson manfaatlari, huquq va

erkinliklarining himoyasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, manfaatlar himoyasi fanlararo xususiyatga ega, inson manfaati himoyasining qonuniy asoslari huquqshunoslik fanlarida, ijtimoiy jihati sotsiologiyada, siyosiy ahamiyati siyosatshunoslik, mafkuraviy ahamiyati ijtimoiy falsafa fanlarida o'rganiladi. Har bir fan doirasida manfaatning inson hayoti farovonligini ta'minlashga yo'nalganligi ular orasidagi umumiy o'zaro aloqadorlikni namoyon etadi. Biroq, har bir fan doirasida manfaatlarning mafkuraviy ahamiyati fanning maqsadlari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Shu bois, biz manfaatlar himoyasini har bir fan nuqtai-nazaridan tahlil qilishga harakat qilamiz. Masalan, falsafa qomusiy lug'atida "manfaat shaxsning iqtisodiy ehtiyojlari bilan belgilanadi" [10] degan baho berilgan, bizning fikrimizcha, bu ta'rifda inson manfaatlari faqat moddiy ehtiyojlar bilan baholangan.

Albatta, jamiyatning rivojlanishi, uning barqarorligi, xalq farovonligi iqtisodiy barqarorlikka bog'liq va bu barcha davrlarda o'zining ijtimoiy asosiga egadir. Zero O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek "Xalq bilan uzluksiz muloqot va inson manfaatlari uchun xizmat qilish barcha darajadagi rahbarlar uchun nafaqat majburiyat, balki hayotiy tamoyilga aylanishi shart"[11] Bizning fikrimizcha, manfaat himoyasidagi iqtisodiy yondashuvning o'ziga xos xususiyat

shundaki, unda, birinchi navbatda, manfaat moddiy ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali qondirilishi mumkin va bu moddiy manfaat sifatida ustivor ahamiyat kasb etadi, bunda:

- iqtisodiy manfaatlarining mohiyatini jamiyat aholisining turmush tarzi farovonligini oshirishga yo'nalgan turmush sharoitlarini qayta ishlashga bo'lgan ob'ektiv manfaat tashkil etadi. Masalan, birgina so'nggi 20 yilda dunyo aholisining turmush sharoitlari misli ko'rilmagan darajada yangilandi va bu jarayon takomillashib bormoqda;

- iqtisodiy manfaat ijtimoiy ishlab chiqarish, odamlarning maqsadli faoliyatititashkil yetish va unga yerishishni namoyon etadi;

- iqtisodiy manfaatlar ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq holda rivojlanadi. Bunda pul ekvivalenti manfaatlarini qondirish omili va bozor munosabatlarini tartibga soluvchi vazifasini bajaradi. Q.Abdurahmonov fikricha, "Iqtisodiy manfaat inson hayotining bosh maqsadi, uni harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir"[12]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asrda M.Sheler [13], E.Fromm[14], A.Shopengauer[15], N.Berdyayev[16], Pyer de Sharden[17] insonning ma'naviy qiyofasi uning xulq atvorida namoyon bo'lishini, qalb pokligi har qanday yomon xulq-atvordan asrash me'yori sifatida amal qilishini va iroda erkinligi insonning ehtiyojlarini jilovlash omili ekanligini asoslaganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Bizning fikrimizcha, bu yo'nalishlarda inson manfaatlari himoyasi psixologik histuyg'ular nuqtai-nazaridan ko'rib chiqiladi va u individual xususiyat kasb yetadi. Manfaatlar, birinchi navbatda, ma'naviy ruhiy holat- larda namoyon bo'ladi. P.A. Rudikning fikricha "Manfaat shaxsning, yehtiyoj esa tananing o'ziga xos holatidir". Bu ta'rifda manfaat tajribalar, his-tuyg'ular bilan tavsiflanadi, manfaatlarini qondirish darajasiga qarab, ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Psixolog D.A. Leontev ham manfaatni holat sifatida baholaydi. U "Manfaat va yehtiyoj holatini aniqlashning iloji yo'q" deb baho beradi. "Manfaat holati – bu faqat manfaatning mavjudligini ko'rsatadigan haqiqatdir, lekin bir xil manfaat. Shu ma'noda, manfaat mohiyat, ehtiyoj yesa uning namoyon bo'lishi holati sifatida harakat qiladi". Manfaatning faoliyat motivatsiyasi bilan bog'liq jihatlar L.I. Bojovich, S.B. Kaverin ijodida ochib berilgan. "Motivga bo'lgan manfaatni qabul qilish, birinchi navbatda, insonning faolligini ko'p jihatdan tushuntirganligi sababli yuzaga keladi". S.B. Kaverinning fikricha, "Manfaat insonning ehtiyojlarini qondirish uchun sharoitlarni o'zgartirishga yo'naltiradigan faol munosabatni o'z ichiga oladi. Shuning uchun manfaat inson faoliyatining namoyon bo'lishi uchun yenergiya qaerdan kelib chiqishini tushuntiradi".

Demak, "manfaat" tushunchasi "ehtiyoj", "zaruriyat", "ob'ektiv", "sub'ektiv", "faoliyat", maqsad" tushunchalari orqali tahlil qilinadi va unda jamiyatning mafkurasi o'z ifodasini topadi.

Biz manfaatlarining mafkuraviy mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun uning "zaruriyat" tushunchasi bilan aloqasini tahlil qilamiz. Agar manfaat – bu biror narsaga bo'lgan yehtiyojni qondirish jarayoni bo'lsa, u holda yehtiyojning manbaini aniqlash maqsadga muvofiq. Shu nuqtai-nazardan, yehtiyoj g'oyaviy ta'sir, mafkuraviy targ'ibotlarga bog'liq bo'lishi, unda inson va jamiyatning manfaatlari o'z ifodasini topishi mumkin. Bu manfaatni aniqlashning yagona mezonini izlashni o'z ichiga oladi. Falsafada biror narsadan manfaatdorlik mafkuraviy asosga yega bo'ladi, shu ma'noda inson manfaatlarining himoyasi har qanday jamiyatda mafkuraviy ahamiyat kasb yetadi. Mafkura manfaatlarini odam organizm uchun zarur bo'lgan va ayni paytga yetishmayotgan oqsil moddasi kabi himoya qiladi. Bunda manfaat yehtiyoj bilan uyg'unlashadi va yehtiyoj nafaqat odam va hayvonlarda, balki

o'simliklarda ham tan olinadi. Shunday qilib, manfaat tushunchasi manfaat sifatida ushbu toifaning mazmunini toraytiradi, chunki manfaatning inson darajasidagi o'ziga xosligi uni ko'rib chiqish doirasidan tashqarida qoladi. Fikrimizcha, ehtiyoj – bu soddalashtirilgan manfaatdir. Ehtiyojlarining uzoq vaqt qondirilmaligi, insonda manfaatlarining qondirilmaligi va bu yesa, uning ruhiy holatiga aks ta'sir yetishini anglatadi. Shu ma'noda, ehtiyoj tushunchasi moddiy manfaatlarga ko'proq mos keladi. Ammo bu manaviy, xususan, insoniy manfaatlarga nisbatan qo'llanilmaydi va asosan zaruriyatda o'z ifodasini topadi.

Shu ma'noda, biz manfaat tushunchasi bilan zarurat tushunchasi o'rtasidagi munosabatni tahlil qilamiz. Har qanday manfaatning negizida zaruriyat yotadi, chunki manfaatni qondirish biologik yoki ijtimoiy tizim mavjudligining shartidir. Shu bilan birga, manfaat va zaruriyat bir biridan farq qiladi. Zaruriyat – umumiy jarayonga xos bo'lgan muhim, chuqur aloqalar va munosabatlarni tavsiflovchi universal kategoriyadir. Manfaat yesa, tashqi muhit bilan bog'liq munosabatlarni ham ifodalaydi. Yuqorida aytilganlar asoslanib, "manfaat" tushunchasini ijtimoiy subektning (shaxs, ijtimoiy guruh, sinf, jamiyat) holati sifatida aniqlash mumkin, "bu uning mavjudligini taminlashga qaratilgan muayyan obektlar, shartlar, harakatlarga bo'lgan manfaatni aks ettiradi". Bundan tashqari, manfaat doimo zarur va real, mavjud va to'g'ri, mavjudlik va orzu o'rtasidagi ziddiyatni aks yettiradi. Har bir manfaat subektning faoliyati orqali hal qilinadigan bazi bir haqiqiy ziddiyatlarining kashfiyotidir. Qarama-qarshilik manfaatning obektiv asosi, qoniqmaslik holati yesa uning subektiv ko'rinishidir. Manfaatni ijtimoiy hodisa deb hisoblasak, uning o'zgarishi va rivojlanishining ichki manbai manfaat subekti va obekti o'rtasidagi munosabatdir. Manfaat subektning obektga, manfaat obektiga bog'liqligini ifodalaydi. Sub'ekt doimiy ravishda har xil turdagi obektlarga, ijtimoiy sharoitlarga, moddiy, manaviy nematlarga va hokazolarga muhtojdir.

Bizning fikrimizcha, manfaatli munosabatlar shaxslararo mu- nosabatlarda do'stlikni shakllantirish va aksincha do'stlikning konflikt darajasiga yetkazishi mumkin, chunki bunda manfaatlar to'qnashuvi sodir bo'ladi. Manfaatli munosabatlar obekt va subekt o'rtasidagi munosabatlar shakli bo'lib, undan foydalanish birlamchi ahamiyat kasb yetadi. Manfaat munosabatlarida subektning voqelikka bog'liqligi namoyon bo'ladi. Manfaatli munosabatlar faqat moddiy nematlar yoki manaviy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lishi shart yemas, turli vaziyatlarda ular muayyan faoliyat turlariga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Manfaatli munosabatlar yehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan u yoki bu ob'ektni, xizmatni tanlashga asoslangan faoliyatda amalga oshiriladi. Manfaatli munosabatlarining tabiati sub'ektlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, yoshi, turmush tarzi, madaniyati va boshqa omillar bilan bog'liq bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Inson manfaatlari himoyasining tarixiy, ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar bilan bog'likligi va uning boshqaruv shaklida namoyon bo'lishi, insonning ma'naviy kamolotga erishishi va milliy o'z-o'zini anglashiga ijtimoiy muhit ta'sirining ijtimoiy ahamiyati va mafkuraviy jihatlarini ochib berilgan;

Insonning huquq va erkinligi uning burch va mas'uliyatni oshirish omili, ma'naviy kamolot mezonini sifatida vorisilikka o'z ifodasini topishi, uning metodologik yondashuvlarini takomillashtirish mafkuraviy ahamiyat kasb etishi asoslangan;

Dunyo miqyosida inson manfaatlari himoyasining mexanizmlari qiyosiy tahlil etilgan va uning ijobiy jihatlaridan mamlakat aholisining manfaatlari himoyasini ta'minlashda

krektiv tafakkur imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Manaviy manfaatlarining obektlari ularning o'ziga xos xususiyati, manfaatlar obekti sifatida, istemol jarayonida yo'q bo'lib ketmaydi yoki yo'qolmaydi, balki ko'payadi, muayyan vaziyatda u odamlarning manaviy fazilatlarini va qobiliyatlariga aylanadi. Bizning fikrimizcha, manfaatlarining funksiyalarini tavsiflash fan va amaliyot uchun katta ahamiyatga ega, chunki manfaatlar funksiyalarini hisobga olgan holda biz ularning funksional tarifi berishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, manfaat yehtiyoj bilan chambarchas bog'liq bo'lib, biror narsaning kamligi yemas, balki unga yerishish istagi sifatida keng manoda tushuniladi. Biroq, manfaat va yehtiyoj bir xil jarayon yemas, chunki tananing yehtiyoji obektiv holatni aks ettiradi va shaxsning manfaati, yehtiyojini anglash va tushunish bilan bog'liq sub'ektiv jarayondir.

Shaxsning manfaatidan voz kechtirib bo'lmaydi, yehtiyojning paydo bo'lishini aks yettiruvchi va inson uchun paydo bo'lgan istakni qondirish zarurati haqida manfaat signal

bo'lib xizmat qiladi. Bu holat inson uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan tashqi va ichki muhit ta'siriga tananing va shaxsning reaksiyasini namoyon yetadi.

Manfaat - inson ongida aks yetuvchi, insonning ichki ruhiy holati, yehtiyoj va biror narsaning orzusi sifatida inson faoliyatini maqsad sari yo'naltiradi. Bu muloqot jarayonida insonning ichki va tashqi muhitga moslashishini taqozo yetadi. Har qanday inson manfaati malum bir falsafa bilan singib ketgan. Manfaatin inson faoliyatining bir turi sifatida ham ko'rish mumkin, u kishilarning o'z mohiyati, tamoyillari va maqsadlari haqidagi g'oyalari asoslanadi, yani muayyan darajada inson faoliyatini boshqaradi. Manfaat iste'mol falsafasi bilan uyg'un bo'lib, u inson hayotining qadriyatlar tizimini tashkil yetadi, uning o'zagini odamlarning moddiy qadriyatlarga munosabati tashkil yetadi. Uning rivojlanishida uchta tarixiy bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin: ananaviy istemol falsafasi, cheksiz istemol falsafasi va global muammolar kontekstidagi istemol falsafasi. Shu bois, quyida biz aynan inson manfaatlarining istemol madaniyati bilan bog'liq jihatlari tahlil yetishga harakat qilamiz.

ADABIYOTLAR

1. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, O'zbekiston, 2017.
2. Otamuratov S. Milliy g'oya va milliy ma'naviy xavfsizlikning millatni asrash mas'uliyatidagi o'rni// Globallashuv millatni asrash mas'uliyati. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
3. Shermuxamedova N.A. Faoliyat falsafasi// Falsafa. – Toshkent: Noshir, 2020.
4. Turg'unboev F. O'zbekistonda mehnat mentalitetining yangilanish xususiyatlari. Fals.fan.dok..diss. Avtoref – T.: 2006.
5. Agzamxo'jaeva S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ma'naviy taraqqiyot muammolari. Fals. fan. dok. Diss. Ijtimoiy falsafa. T. O'zMU 2008.
6. Almond G., Verba S. The civil Culture Revisited. – Boston, Toronto, 1980.
7. Bell D. The coming of Post-industrial Society. A Venture in Social Forecasting. N.Y.: Basic Books, Inc., 1973. P. 344.
8. <http://www.mgimo.ru/filesserver/>
9. [http://www.ssu.runnet.ru/...](http://www.ssu.runnet.ru/)
10. Фалсафа комусий луғат – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 234
11. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халкнинг иши ҳам улуг, хаёти ёруғ ва келажакит фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 234..
12. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. – Тошкент: Фан, 2015. – Б.34.
13. Шелер М. Положение человека в космосе. – М.: Наука, 19963. – 64 с
14. Фромм Э. О душе . – М.: Наука, 1996. – 456 с..
15. Шопенгауер А. Мир как воля и представление– М.: Наука, 1996. – 345 с.
16. Бердяев Н.А. Самопознание. – СПб(6): 1995.
17. Тейяр де Шарден П. Феномен человека. – М.: Наука, 1987.